

**O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA
YANGI INNOVATSION PED-TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH USULLARI**

Yusupov Botirjon Maxammadjon o'g'li

Namdu Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Xoliqov Zohidjon Olimjanovich

NamDU tayanch doktoranti:

Xasanova Mashxura Maxammadsidiqovna

Namdu erkin tadqiqotchisi:

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarga ingliz tilini oson o'qitishning samarali usullari va ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish tamoyillari kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, axborot texnologiyalari, xorijiy til, innovatsion texnologiyalar, metodlar.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматриваются такие вопросы, как эффективные методы легкого обучения студентов английскому языку и принципы осмысленного и интересного преподавания английского языка.

Ключевые слова: инновации, информационные технологии, иностранный язык, инновационные технологии, методы.

ABSTRACT

This article discusses issues such as effective methods for teaching English easily to students and principles for teaching English in a meaningful and interesting way.

Keywords: Innovation, information technologies, foreign language, innovative technologies, methods.

Hozirgi kunda, chet tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fanining asosiy to'rtta aspektga ya'ni (o'qish, yozish, tinglash va gapirish)ga bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Chet tillarini o'rganishda esa beixtiyor zamonaviy innovatsion

texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ta’lim texnologiyalari, bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini bo‘lib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirilishi nazarda tutiladi. Misol uchun, texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rgnishning har bir aspektida ya’ni (o‘qish, yozish, tinglash va gapirish)da juda ham qo‘l keladi. Masalan, tinglash uchun, albatta kopmyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni malga oshirib bo‘lmaydi. Tinglab tushunishsa chet tili o‘rganishning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Chunki, o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, so‘z boyligi va unig grammatik qoidalarga rioya qilganligi, shu bilan birgalikda har bir so‘zning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

O‘quvchi-talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

O‘quvchi-talabaning o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;

Pedagog va O‘quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi. Ushbu jarayonlardagi muhim omillaridan biri esa – til o‘rgatuvchi va til o‘rganuvchining axborot - kommunikatsion texnologiyalarga oid bilimga ega bo‘lishidir. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida, jumladan, kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi-talaba ingliz tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni tomosha qiladi, tinglab-tushunishga harakat qiladi. Bu texnik vositalardan foydalanish talabalarga tilni autentik materiallar orqali organizh imkoniyatini beradi, til o‘rganuvchi tilni katta qiziqish bilan o‘rganadi. Bu bilan ingliz tilini o‘rganish jarayoni qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishi taminlanadi.

Chet tilini o‘rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos. Shu o‘rinda hozirgi davrda keng qo‘llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda. Masalan:

1.”B-B-B”(bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o‘quvchilarning matnni tushinishini, uni tahlih qilish qobiliyatining o‘sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.

2. “Aqliy hujum” (Brainstorming)-g‘oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o‘quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo‘yicha bir qancha bosqichlarga : g‘oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3. “Muammoli vaziyat yechimi”(Creative Problem Solving). Bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o‘qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish o‘quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul o‘quvchida fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

4. “Tezkor savol”(Quick answers) Bunda o‘quvchilarga o‘tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o‘tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. “Pantomima”(Pantomime)- turli xildagi so‘zlarni imo-ishoralar orqali tushuntirish.Bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarib o‘quvchilar charchagan paytlarida foydalanilsa maqsadqa muvofiq bo‘ladi.

6. “Hikoya zanjiri”(A chain story)- biror bir hikoyani aytib beriladi. Bu metod o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantir

7. “Rasmlar so‘zlaganda”(When pictures speak) usuli ancha qulay bo‘lib,ingлиз tilini o‘rgatishda, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga aloqador rasmlardan foydalanish lozim.

8. “Kviz kartochkalar”(Quiz cards)- bunda o‘quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o‘quvchilarlar bir vaqtida darsda ishtirok etishini ta’minlaydi, bu esa vaqtni ancha tejaydi.

9. “Klaster” usuli. Klasterlarga ajratish o‘quvchilarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg‘otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo‘sish uchun samarali usuldir.

10. “Insert” metodi. Bunda o‘quvchilarga biror matn yoki hikoya taqdim etiladi va o‘quvchilardan uni qayta gapirib berishni talab etiladi. Bu usul matn bilan ishlanganda faollikni, kuzatuvchanlikni va tushunishni qo‘llab-quvvatlash uchun kuchli metod hisoblanadi.

Demak, yuqorida ko‘rsatilgani kabi har bir metodning chet tillarni o‘rgatishda samarali usullari bor ekan. O‘qitish jarayonida har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan unumli foydalanish o‘quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondashishiga, bilim olishga qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi.O‘qituvchi hamda o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha oladi.

Yuqorida ko‘rinib turganidek, har bir innovatsion texnologiya o‘ziga xos afzallik jihatlariga ega. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tili darslarida innovatsion

usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari , nutqi rivojlanadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

J. Jalolov . – ingliz tilini o‘qitish metodlari – O‘qituvchi nashiryoti Toshkent To‘xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O‘quv qo‘llanma. (2022). https://uniwork.buxdu.uz/resurs/35166_1_BAA9BD1CC497C203D3200110EA15F0781B170F97

<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/5693>